

ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

**2-son**  
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

<b>O. Musurmonova</b>	4	Professional ta'lismuassasalarida yigit-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash
<b>E. Murodov</b>	9	Umumiy o'rta ta'lismuassasalarini o'quvchilarini zamonaviy kasblarga o'qitishning zaruriyatini
<b>Z. Taxirov</b>	12	Til, uslubiyat, nutq madaniyati va adabiy tahrir
<b>R. Musurmonov</b>	18	Maktab o'quvchilarida darsga ijobiy munosabatni shakllantirishda refleksiv ko'nikmalar
<b>Z. Negmatova</b>	22	Etnopedagogik manbalarning turlari va tarbiyaviy imkoniyatlari
<b>U. G'oyimov</b>	26	"Refleksiv qobiliyat" tushunchasining mazmuni va mohiyati
<b>O. Avezmuratov, Z. Avezmuratova</b>	30	Ta'lismuassasi jarayonida buyuk ajodolarimizning ilmiy meroslaridan foydalanish
<b>M. Usmonova</b>	34	Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning mazmuni
<b>I. Oxunov</b>	38	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlanishining pedagogik asoslari



**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

<b>N. Abduraimova</b>	42	Adabiyot darslarida loyiha metodining ahamiyati va dolzarbliji
<b>A. Raxmatov</b>	45	Texnologiya darslarida "sodda ko'rinishdagi harakatlanuvchi avtomobil yasash" mavzusini o'qitish metodikasini takomillashtirish
<b>M. Mirzakarimova</b>	50	Ingliz tilini tadbirdorlikka yo'naltirib o'qitishda CLIL texnologiyasi
<b>M. Sharipova</b>	54	Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda kognitiv-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish mohiyati
<b>K. Kultayev, S. Jumanova</b>	58	Mustaqil ta'lim topshiriqlaridan namunalar uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish mohiyati
<b>M. Qolqonova</b>	63	Tarbiyalanuvchilarda faoliyatli yondashuv asosida ijodiy tasavvurni shakllantirish
<b>R. Ziyayev, M. Umarova</b>	66	Uglevodorolarning (alkenlar misolida) oksidlanish reaksiyalarini o'rganish



**TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT**

<b>M. To'ychiyeva, Sh. Naraliyeva,</b>	71	Ta'limda ijdiy fikrlashning ahamiyati
--	----	---------------------------------------



**ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

<b>J. Hakimov</b>	76	Elektron resurslarni o'quv jarayoniga joriy etishning zarurati
<b>A. Homidov</b>	80	Elektron resurslarni ishlab chiqish, tadbiq etish va baholash



**MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

<b>G. Mirzayeva, T. Kaxxorova</b>	84	"Do'ppichilik san'ati" mavzusini o'qitish va baholash mezonlari
---------------------------------------	----	---



**TA'LIMDA MENEJMENT**

<b>F. Islomova</b>	90	Strategik menejment usullari asosida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari
<b>Q. Oqilov</b>	94	Umumta'lim maktablari boshqaruvini takomillashtirishning dolzarb masalalari



### TA'LIMDA MARKETING

<b>J. Abduhamidov</b>	98	O'zbekiston respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarida savdo va tovar ayrboshlash masalalari
-----------------------	----	--



### JISMONIY TARBIYA VA SPORT

<b>U. Rahmonov</b>	102	Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy madaniyatning o'rni va uni takomillashtirish
<b>Ya. Ergashev</b>	106	Jismoniy tarbiya va sport fani o'qituvchilarining kreativ kompetentligini takomillashtirish
<b>X. Maxmarizayev</b>	110	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini intellektual va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish
<b>N. Raxmatova</b>	113	Bo'lajak badiiy gimnastikachilarni saralashning tashkiliy-pedagogik asoslari
<b>Sh. Ruziyev</b>	116	O'quvchilarni voleybol to'garaklariga jaib qilishga oid pedagogik mahorat masalalari
<b>F. Homidjonova</b>	120	Ayol kurashchilarning musobaqa faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
<b>F. Xomudjonova, B. Oralova</b>	124	Qisqa masofaga yugurishda tezkor chidamlilikni tarbiyalash usullari
<b>B. Xolmaxmatov</b>	127	13-15 yoshdagи futbolchilarni jismoniy va funksional tayyoragarligini takomillashtirish



### MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

<b>O. Ro'ziyeva</b>	130	Integratsiyalashgan mashg'ulotlar vositasida tarbiyalanuvchilarda musiqiy idrokni shakllantirishning ahamiyati
---------------------	-----	--



### ПСИХОЛОГИЯ

<b>I. Mustafayeva</b>	133	Talabalarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
-----------------------	-----	--



### ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK

<b>R. G'uulomova</b>	136	Ijtimoiy-ekologik muammolarni ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganishning ahamiyati
----------------------	-----	---



### КУЛЬТУРА, ИСКУССТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

<b>A. Omarsova</b>	139	Качественное преподавания физической культуры и спорта в высшем образовании – основа формирования общей и профессиональной культуры личности современного специалиста
--------------------	-----	---

Rahmatilla MUSURMONOV,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,  
"Maktab menejmenti" kafedrasи dotsenti, p.f.n.

## MAKTAB O'QUVCHILARIDA DARSGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDA REFLEKSIV KO'NIKMALAR

### Annotation

Maqolada maktab o'quvchilarida dars jarayoniga ijobiy munosabatni barqrorlashtirishda o'z-o'zini tahlil qilish orqali yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarini aniqlash va korreksiyalash (refleksiv faoliyat) ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari to'g'risida fikr yuritilib, tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so'zlar.** Modernizatsiyalashgan ta'llim, darsga ijobiy munosabat, refleksiv ko'nikmalar, o'quvchilar, pedagogik xodimlar, tizimli yondashuv.

В статье рассмотрены и даны рекомендации по педагогическим условиям формирования у школьников навыков выявления и коррекции ошибок-недостатков (рефлексивной деятельности), допущенных посредством самоанализа в стабилизации положительного отношения к процессу урока.

**Ключевые слова.** Модернизированное образование, позитивное отношение к уроку, рефлексивные умения, учащиеся, педагогический коллектив, системный подход.

The article reflects on the pedagogical conditions for identifying and correcting (reflexive activity) skills that schoolchildren have made by self-analysis in stabilizing a positive attitude towards the course of the lesson and gives recommendations.

**Key words.** Modernized education, positive attitude to the lesson, reflective skills, students, teaching staff, systematic approach.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonlarida ularda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish uchun ularni tahliliy fikrlashga o'r-gatish asosida refleksiv faoliyatini tashkil etish zarur, chunki ko'proq tahliliy fikrlash ularning o'zi tomonidan mustaqil o'rganish va o'zlashtirish jarayonlarida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonlarida vujudga keladi. O'quvchi tomonidan ta'llim olish va kasb-hunar o'rganish yo'nalishidagi o'zining irodaviy xatti-harakatlarining amaliy ahamiyatini va zaruratini mustaqil ravishda tahlil qilishi hamda tushunishi ularning refleksiv faoliyati jarayonlari hisoblanadi.

Refleksiv yondashuv asosda tashkil etilgan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonlari o'quvchilarni o'z faoliyati va faolligini, bilimi va dunyoqarashini o'zi tomonidan tahlil qilishga, darsga bo'lgan munosabatini mustaqil ravishda obyektiv baholashga undaydi.

Demak, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bilan ishlash jarayonlarida refleksiv yondashuv o'quvchilarning o'z faoliyati natijalarini hech qanday qarshiliksiz o'zi tomonidan mustaqil o'rganish, o'z shaxsiy imkoniyatlari va undan foydalanish samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholashga undovchi vaziyatlarni vujudga keltirishi bilan bir qatorda, o'qituvchi tomonidan dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarni mustaqil ta'llim olishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida motivlashtirish jarayonlarini tashkil etishga keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

---

Chunki refleksiv yondashuv jarayonida o'quvchilarni tahliliy faoliyatga undashga xizmat qiluvchi qulay refleksiv ta'limi muhit vujudga keladi. Refleksiv ta'limi muhitni vujudga keltirish o'quvchilarning ta'lim olishga shaxsiy moyilligi va qiziqishi darajasini aniqlash va o'rganilayotgan mavzuga, uning ahamiyati, mazmun-mohiyatiga qiziqish shakllantirish asosida ularning refleksiv faoliyatini amalga oshirishga, faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyat jarayonida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi rivojlanib borib, ularda o'qish va o'rganishga moyillik o'z faoliyatini tahlil qilish asosida shakllanadi. Refleksiv faoliyat jarayonida dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar o'qish va o'rganishi uchun qanday to'siqlar xalaqit berayotgani, o'zi nimaga ko'proq qiziqayotgani, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishning amaliy ahamiyati nimadan iborat ekanligini mustaqil tushunib yetadi. Refleksiv faoliyat jarayonida nafaqat dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar, balki faol o'quvchilar ham o'z faoliyati va xatti-harakatlarini tahlil qiladi hamda obyektiv baholaydi. Shuningdek, ularda o'qish va o'rganishga moyillik va qiziqishlar shakllanishi bilan bir qatorda, ularda to'g'ri kasb tanlash va kasb-hunar o'rganish mas'uliyati shakllanadi.

Demak, refleksiv faoliyat jarayonlarida o'quvchilarning refleksiv qobiliyatları rivojlanib borib, ularda refleksiv ko'nikmalar shakllanadi. Refleksiv ko'nikmalar shakllangan o'quvchi o'qish va o'rganish, o'z faoliyatini mustaqil tahlil qilish va obyektiv baholash qobiliyatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida unda ma'lum bir vogelik yoki hodisani, o'tmishni yoki o'tmishdagи jarayonlarning oqibatlarini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash kabi fazilatlar shakllangan bo'ladi.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi esa qo'llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlariha hamda tatbiq etiladigan yondashuvlarni vaziyatlarga ko'ra to'g'ri tanlanish darajasiga bog'liq bo'la-di. Shuningdek, beriladigan axborot va ma'lumotlar hajmi hamda mazmun-mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning moyilligi, qiziqishi va imkoniyatlariga mos kelishi, axborot va ma'lumotlarning aniqligi, ishonchli dalillar asosida qiyosiy tahlil qilinishi ham samaradorlikni ta'minlashiga xizmat qiladi.

Demak, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining sifat va samaradorligi, eng avvalo, mazkur jarayon subyektlarining mahorati, tashkilotchilik, ijodkorlik va izlanuvchanlik qobiliyati, bir so'z bilan aytganda ularning kasbiy kompetentliligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomonidan refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish texnologiyalarining maqsadi va vazifasiga ko'ra ulardan to'g'ri va samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlarda refleksiya, pedagogik refleksiya, refleksiv faoliyat, o'qituvchining refleksiv faoliyati tushunchalar turlicha talqin qilinsa-da, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari o'quvchilar tomonidan o'zini o'zi va o'z faoliyati natijalarini o'zi tomonidan mustaqil o'rganish, tahlil qilish, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirish jarayonlari ma'nosida qo'llaniladi.

O'qituvchining refleksiv faoliyati haqida fikr yuritilganda esa, eng avvalo uning mazkur jarayondagi prinsipialligi, ya'ni dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlar va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlaridagi prinsipiallikni tushunish mumkin. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bilan ishslash jarayonida prinsipiallik o'quvchilarning o'z faoliyati yoki xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish, ishonchli dalillar vositasida taqqoslash, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirishga o'rgatishda o'z pozitsiyasiga ega bo'lisdier.

O'quvchining refleksiv faoliyati esa o'z faoliyati yoki xatti-harakatlarini mustaqil tahlil qilish, ishonchli dalillar vositasida taqqoslash, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirish asosida o'z o'quv faoliyati ahamiyatini tushinishi va ta'lif olish va kasb-hunar o'rganish yo'nalishida yangi pozitsiyasining shakllanishidir. Shunday ekan, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining refleksiv faoliyati tushunchasi o'quvchining refleksiv faoliyati (o'quvchi pozitsiyasi) tushunchasidan farq qiladi. O'quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lib, murakkab pedagogik tizim hisoblanadi.

Demak, innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish zarur. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga tizimli yondashuvni tatbiq etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sifat va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday ekan, dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashqi muhitda xizmat qilayotgan innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, mazkur jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish, tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyatining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish zarur. O'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyati yo'nalishida vaziyatlarga ko'ra vujudga kelayotgan talablar hamda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish zaruriyati samaradorlikni ta'minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlari samaradorligi dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari majmui hisoblangan tizim komponentlarini o'zgartirish, ularni qayta tashkil etish va moslashtirishga bog'liq bo'lib, o'zgartirish, qayta tashkil etish va moslashtirishda ham tizim komponentlari hisoblangan jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Xususan, ta'lif va mustaqil ta'lif jarayonlari, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, motivlashtirish jarayonlarining har birining o'ziga xos xususiyatlarini misol keltirish mumkin.

Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o'zaro bog'liq holda, yaxlit tizim sifatida tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda mazkur jarayonlar samaradorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq etishning ahamiyatini quyidagi tamoyillar orqali asoslash mumkin:

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari subyektlari sifatida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat ko'rsatishi, ya'ni mazkur jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;
- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;
- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion murakkab pedagogik tizim o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;
- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;

---

– refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

– refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariiga ega ekanligi ahamiyatlidir.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ana shu sifat va vositalarga jiddiy e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talabalik davrida ularda refleksiv faoliyat yuritish ko'nikmalari shakllanma-gan bo'lsa, bu juda katta yo'qotish, bo'lajak o'qituvchining kompetentlik darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Maktab menejmenti" kafedrasi professor-o'qituvchilari talabalarga o'z faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilish, erishilgan yutuqlarning sabab oqibatlari va yo'l qo'yilgan kamchilik-nuqsonlarga barham berish uchun mustaqil ta'lim olish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning sabablarini tafakkur qilish ko'nikmalarini shakllantirishda alohida e'tibor berib kelmoqdalar. Professor-o'qituvchilarning o'zaro hamkorlikda klaster metodi asosida olib borayotgan faoliyatları natijasi o'laroq, darsdan tashqari maktab menejmenti yo'nalishi talabalari bilan tashkil etilgan to'garaklarda ta'lim samaradorligini ta'minlashning nozik jihatlari o'rgatilib kelinmoqda. Bu borada pedagogika fanlari doktori, professor Himmataliyev Do'stnazar Omonovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Rahmatilla Musurmonov, pedagogika bo'yicha falsafa doktori, dotsent Akbar Nomozovich Rasulovlarning olib borayotgan amaliy ishlari va nazariy ma'ruzalari boshqalarga o'rnak bo'lib, o'zining samarali natijalarini ber-moqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hasanov J., To'raqulov X.A., Alqarov Sh., Usmonov N.O., Pedagogika. – T.: "Noshir", 2011.
2. Abdullayeva D., Yorqulov R., Atabayeva N. Oila psixologiyasi. – T.: "Tafakkur Bo'stoni", 2015.
3. Asqarova. O'.M., Xayitboev M., Nishonov M.S. Pedagogika. – T.: "Talqin", 2008.
4. G'oziyev E.F., Meliboeva R.N. Ijtimoiy psixologiya. – T.: "Faxrizoda", 2009.
5. Musurmonov R., Musurmonova M. O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarini klaster asosida o'rganish. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "ZEBO PRINT" MCHJ, 145 b.